

**DUNYO SOTSIAL HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI:
YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA QO'YILAYOTGAN
TO'SIQLARNING AHAMIYATI**

Raxmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda dunyo miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyalar, ularning dunyo hamjamiyatidagi o'rni va rivojlanishi uchun to'siqlik qilayotgan munosabatlar haqida aniq statistik ma'lumotlar, zamonaviy fikrlar, ilmiy-tahliliy nazariyalar yoritilgan. Sotsiologiya fani doirasida o'rganilishi zarur bo'lgan muhim masalalardan biri ham aynan gender tenglik masalasidir.*

Kalit so'zlar: *Sotsiologiya, jamiyat, gender tenglik, sotsial differentsiatsiya, gender rol, fenomen, gender balans.*

**РОЛЬ ЖЕНЩИНЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ МИРА: ВАЖНОСТЬ
ВОЗМОЖНОСТЕЙ И ПРЕПЯТСТВИЙ**

Рахматуллаева Озода Шахридиновна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Факультет социальных наук

Социология студентка 2 ступени

Аннотация: *В данной статье собраны точные статистические данные, современные представления и научно-аналитические теории о возможностях, созданных для женщин, которые сегодня имеют большое значение в глобальном масштабе, их месте в мировом сообществе, отношениях, которые препятствуют их развитию. Одним из важных вопросов, который необходимо изучать в рамках социологии, является вопрос гендерного равенства.*

Ключевые слова: *Социология, общество, гендерное равенство, социальная дифференциация, гендерная роль, феномен, гендерный баланс*

**THE ROLE OF WOMEN IN THE SOCIAL LIFE OF THE WORLD: THE
IMPORTANCE OF OPPORTUNITIES AND OBSTACLES**

Rakhmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Faculty of Social Sciences

Sociology 2nd stage student

Annotation: *This article contains accurate statistical data, modern ideas, and scientific-analytical theories about the opportunities created for women, which are of great importance on a global scale today, their place in the world community, and the relationships that hinder their development. One of the important issues that need to be studied within the framework of sociology is the issue of gender equality.*

Key words: *Sociology, society, gender equality, social differentiation, gender role, phenomenon, gender balance.*

Bugungi kunda dunyo rivojlanish tendensiyasi ko'z ilg'amas darajada tezlashayotgan bir davrda muhim masalalardan biri bu gender masalasidir. Sotsial hayotda xotin-qizlarning roli deganda birinchi navbatda gender masalalari e'tiborga olinadi. Gender tenglik muammosi nafaqat biror mamlakatlar miqyosida balki dunyo mamlakatlari bo'yicha ham ahamiyatli masalalardan biridir.

Gender tenglik nima? Gender tenglik bu ayol va erkaklar orasidagi teng huquqlarga erishishni nazoratda tutadigan tushuncha va qonuniy munosabatlardir. Gender tenglikning asosiy maqsadi ayolning ayol sifatida, erkaklarning esa erkak sifatida rivojlanish imkoniyatini yaratishdir.

Postindustrial davlatlarda xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi sotsial hayotdagi barcha sohalardagi faolligini ko'rishimiz mumkin. Mashhur misrlik feminist yozuvchi, psixiatr Naval al Saddaviyning " Ayollar o'rtasidagi birdamlik kuchli o'zgarishlar asosi bo'lishi mumkin va kelajakdagi rivojlanish nafaqat ayollar, balki erkaklar uchun ham foydali bo'lishi mumkin".

2022-yil avgust oyida Countrymeters tashkilotining statistikasiga ko'ra, dunyo aholisi soni 8 milliardga yaqin bo'lib, erkaklar 4,04 mlrd. Ayollar soni 3,96 mlrd dan oshiqdir. Bu balans ijobiy natijani ifodalaydi, biroq ular o'rtasidagi imkoniyatlar tengligida sezilarli differentsiatsiyani inkor etolmaymiz. Xususan, O'zbekiston jamiyatida ham xotin-qizlar uchun: yoki kariera, yoki oila tamoyili haligacha hukmronlik qilmoqda. Ma'lumki, o'g'il bolalarning yoshligidan erkinlik huquqlari cheklanmagan, qiz bolalarda esa itoatkorlik, bo'ysunuvchanlik xususiyatlari kuchli shakllantirilgan bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan dastlabki gender tenglik balansining buzilishi namoyonidir. Bu muammolar nafaqat O'zbekistonda mavjud balki rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida bundanda ziyodroq sotsial muammolarga duch kelamiz. Masalan, XVIII-XIX asrlarda Yevropa dunyoviy madaniyatida ayollarga mo'rt va zaif degan munosabatda bo'lishgan. XX asr o'rtalarida Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ayollarning gender roli – uy bekasi tamoyili avjiga chiqqan davr edi. Aynan shu tamoyil hanuzgacha o'z kuchini yo'qotmagan.

Jamiyatdagi gender rollar tafovvuti natijasida yuzaga kelgan muammolar zanjiri bevosita sotsial hayot bilan bog'langan. An'anaviy jamiyatlar oila tizimida yuzaga kelayotgan ajirim muammolarining tub negizida ham gender differentsiatsiallik, oiladagi ijtimoiy rollarning bajarilishidagi mas'uliyatsizlik kabi bir qancha jiddiy omillar ta'sir qilmoqda.

United Nations Butunjahon Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, yaqin 2 yil ichida 10 millionga yaqin qiz belgilangan nikoh yoshidan erta, majburiy nikohlash va zo'ravonlik

qurboniga aylanishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, United Nations Bosh Kotibi Kamala Harris ta'kidlaganidek, - Ayollar o'zini yordamchi lavozimida qolishga ko'nikish hosil qilar ekan, biz hech qanday yo'l bilan ularni erkin shaxsga aylantira olmaymiz.

Endi mavzuning ijobiy taraflariga ham nazar soladigan bo'lsak, dunyo hamjamiyati sotsial, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida xotin-qizlar ulushi oxirgi yillarda sezilarli darajada oshgan. Xususan, OAV orqali xotin-qizlarning shaxsiy hayotidagi muammolar: jismoniy va psixologik zo'ravonliklar, tajovvuz kabi hayvoniy munosabatlar ochiqdan ochiq tanqid qilinishi barchaga o'rnak bo'ladigan fenomen sanaladi.

E'tibor berib qarasaq, postindustrial davlatlar tashkilotlarida ayollar ulushi erkakalar ulushi bilan deyarli farqlanmaydi. Islom mamlakatlarida, xususan, Birlashgan Arab Amirligi hukumat idoralari ham ayollarning faolligini ko'rishimiz mumkin. Fransiya, Norvegiya, Germaniya davlat organlarida ayol xodimlar soni erkaklarniki bilan deyarli farqlanmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham Gender tenglik masalalari bo'yicha ijobiy islohotlarni ko'rishimiz mumkin. Davlat tashkilotlarida erkaklar bilan bir safda xotin-qizlarning ham faoliyat yuritayotgani Yangi O'zbekistondagi demokratik islohotlarning yanada kuchliroq va ildamroq amalga oshirilayotganidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Encyclopedia of Sociology Second edition Volume 1. Edgar F. Borgatta Editor-in-Chief University of Washington, Seattle
Rhonda J.V. Montgomery.
2. Узбекистан Обновленная гендерная оценка по стране Ташкент. декабрь 2018 г. Стр 34.
3. www. abd.org
4. Гендерная статистика и политика в интересах равенства и женщин и мужчин в странах содружества независимых государств Москва 2017г. Стр.9
5. Каримов Х.К. Социально-психологические особенности супружеских конфликтов в узбекской семье. Автореферат псих. Наук – Ташкентб 1994б стр13.